

NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Gulzar Jumamuratova

Tumaris Azizova

O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

Qoraqalpogiston filiali katta ilmiy xodimalari

Rezuyme: *Mazkur maqolada ona tili ta'limining asosiy vazifalari, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya elementlari, og'zaki va yozma nutq o'stirish, ijodiy va kreativ fikrlash hamda o'quvchilarning tavakkur qilish qobiliyatini takomillashtirish bo'yicha masalalari tahlil qilingan.*

Резюме: *В данной статье рассмотрены основные задачи родного языка образования, речевых навыков, элементов речевой компетенции, развития устной и письменной речи, образно-творческого мышления, совершенствования мыслительных способностей учащихся.*

Summary: *In this article, the main tasks of mother tongue education, speech skills, elements of speech competence, the development of oral and written speech, creative and creative thinking, and the improvement of students' ability to think*

Kalit so'slar. *Ona tili ta'limi, og'zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya.*

Ключевые слова. *Обучение родному языку, устная и письменная грамотность, навыки говорения, речевая компетенция.*

Key words. *Mother tongue education, oral and written literacy, speaking skills, speaking competence.*

Xalqimiz ona tiliga muntazam muhabbat bilan qaragan, uni e'zozlab ardoqlagan. Tilning aloqa vositasi ekanligi uning ko'plab vazifalaridan faqat bittaginasidir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni paytda tilning ruhiy, estetik hodisa ham ekanligini unutmasligimiz lozim. Ona tili o'qitishda o'qituvchiga qo'yiladigan vazifalardan biri o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish hisoblanadi. Nutqiy kompetensiyaning birinchi elementi bu tinglab tushunishdir.

Nutqiy kompetensiyani ona tili mashg'ulotlarida rivojlantirish matnlar mazmunini peysaj, tabiat manzaralari tasviri, rasm, ko'rgazmalar, diagrammalar, dialogli matnlar bilan ishlash, matn turlari bo'yicha topshiriqlar tuzish va fikrini yozma bayon qilishga asoslangan mashqlar yaratish, matnni tahrir qilishga o'rgatish bo'yicha savollar jamlanmasini ishlab

chiqish foydali deb hisoblaymiz, buning uchun o'quvchilarning so'z boyligini oshirishimiz va yozma savodxonligiga e'tibor qaratish zarur. Ma'lumki, ona tili darslarida o'quvchilardan og'zaki va yozma nutq me'yorlari bo'yicha grammatik qoidalar, nutqiy mavzularda keltirilgan ta'riflar, ma'lumotlar bilan tanishish va puxta o'rganish talab qilinadi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamaları ham tushuntirilishi

lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet

keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, shaxsdan boshqa

barcha tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu esa ot, sifat, son, fe'l

kabi so'z turkumlari va ularning atamalarini tez fahmlab olishda yordam beradi.

Vaqtdan unumli foydalanib, so'zning ma'nosini tushuntirishga juda kam vaqt ajratishi va bu bilan darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usul va yo'llarini, darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi.

Boshlang'ich ta'lim o'qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar, atamalar, jumlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi. Bu esa o'quvchi diqqatini chalg'itmaslik nazarda tutiladi. Bordi-yu biror so'z, jumla yoki iborani matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilib qolsa, matn mazmunidan kelib chiqib, o'quvchilar diqqatini chalg'itmagan holda shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntiriladi. Shuningdek, ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli sozlar, tasviriy ifodalar, frazeologik birliklar matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi. Shunindek, Sh.Yuldashevaning "Davlat tili ta'limida o'quvchilar nutqiy malakalarini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini topshiriqlar orqali rivojlantirish ona tilini davlat tili sifatida o'qitish mazmunida quyidagilar yoritilgan:

1. Nutqiy-kommunikativ malaka, turli nutqiy vaziyalarda fikr bayon eta olish, fikr almashish, eshitilgan materialni idrok etish, o'qish orqali axborot olish, fikrlarni yozma bayon qila olish malakalari.

2. Til vositalarini nutqda qo'llash uchun ona tili tizimidagi zarur bilimlarni (nutq tovushlaridan to muomalalarining eng kichik birligi-gapgasha) o'zlashtirish, ya'ni Grammatik malaka.

3. Xalqimizning milliy xususiyatlari, madaniyati xamda umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali xosil qilinadigan malaka.

O'quvchilarning nutqini rivojlantirishda grammatik, kommunikativ malakalar ularning nutqiy kompetensiyalar takomallashib borishida xizmat qiladi, binobarin, har bir ta'lim jarayoni subyektlarida xalqning milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish ulardagi vatanparvarlik, insonparvarlik faziyatlari, o'zlikni anglashning o'sishiga, nutqiy vaziyatlarda gapirish, savodli tarzda og'zaki va yozma ifoda qilish mustaqamlanadi. Shu jihatlar vositasida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi takomillashib boradi. Xullas, nutqiy kompetensiyaning elementlari: tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish yil davomida olingan bilimlar amaliy faoliyatda sinovdan o'tadi. O'quvchilarning ona tilidan olgan bilimlari filning grammatik qurilishini nechog'lik o'zlashtirganliklari bilangina emas, balki ularning o'z fikrlarini adabiy filning boy ifoda vositalaridan o'rinli, to'g'ri foydalangan holda og'zaki va yozma shakllarda ifodalashlari, shaxsiy mulohazalarini erkin bayon qila olishlari bilan belgilanmog'i lozim. O'quvchilarning lug'at tarkibi va so'z boyligini oshirish jarayonida "O'qish kitobi" dagi she'riy va nasriy asarlarda keltirilgan lug'aviy birliklarni tahlil qilish orqali oshirib borishimiz mumkin. Demak, ona tili darslarida o'quvchilarga nutqiy kompetensiya elementlarini rivojlantirish ularning kommunikativ va lisoniy kompetensiyalalarini mustahkamlashi bilan birga ijodiy va tahliliy yondashish, o'z fikrini og'zaki gapirib, uni yozma ifodalay olish o'sadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldasheva Sh.Sh. Davlat tili ta'limida o'quvchilar nutqiy malakalarini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.nom.diss. – T., 2008.

2. Yo'ldoshev R. Ta'lim boshqa fillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili ta'limi mazmuni va metodlarini tanlashda uzviylik. Uzluksiz ta'lim. Ilmiy-metodik jurnal. – T., 2002.6-son